



## SOCIAL ESSENCE OF LANGUAGE

**Feruza Tursunovna Tursunova**

Senior lecturer of the Department of English Language

Teaching Methodology

The Uzbekistan University of World Languages

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Language, society, social essence, communication, culture, value, national consciousness, upbringing, social consciousness, heritage, development.

**Received:** 20.10.25

**Accepted:** 21.10.25

**Published:** 22.10.25

**Abstract:** Language is one of the most important social phenomena of humanity and plays an invaluable role in the life of society. It is not only a means of communication, but also the main means of expressing national identity, transmitting culture and values from generation to generation. Through language, people communicate with each other, exchange ideas and knowledge, and preserve social experience as heritage. In this regard, language acts as a unifying and developing force of society. The article analyzes the social essence of language, its communicative, educational, and cultural functions. The direct role of language in the formation of social consciousness in the development of society is also highlighted.

### TILNING IJTIMOY MOHIYATI

**Feruza Tursunovna Tursunova**

Ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

O'zbekiston jahon tillari universiteti,

Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Til, jamiyat, ijtimoiy mohiyat, muloqot, kommunikatsiya, madaniyat, qadriyat, milliy o'zlik, tarbiya, ijtimoiy ong, meros, taraqqiyot.

**Annotatsiya:** Til insoniyatning eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri bo'lib, jamiyat hayotida beqiyos o'rin tutadi. U nafaqat aloqa vositasi, balki milliy o'zlikni ifodalash, madaniyat va qadriyatlarni avlodlardan avlodga yetkazishning asosiy vositasidir. Til orqali kishilar o'zaro muloqot qiladi, g'oya va bilimlarni almashadi, ijtimoiy

tajribani meros sifatida saqlaydi. Shu jihatdan, til jamiyatni birlashtiruvchi hamda rivojlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada tilning ijtimoiy mohiyati, uning kommunikativ, tarbiyaviy va madaniy vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, til jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy ongni shakllantirishdagi bevosita o'rni yoritiladi.

## СОЦИАЛЬНАЯ СУЩНОСТЬ ЯЗЫКА

**Феруза Турсуновна Турсунова**

*Узбекского университета мировых языков*

*Старшему преподавателю кафедры методики*

*преподавания английского языка*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Язык, общество, социальная сущность, общение, коммуникация, культура, ценность, национальное самосознание, воспитание, общественное сознание, наследие, развитие.

**Аннотация:** Язык является одним из важнейших социальных явлений человечества и играет неопределимую роль в жизни общества. Она является не только средством общения, но и основным средством выражения национальной идентичности, передачи культуры и ценностей из поколения в поколение. Через язык люди общаются друг с другом, обмениваются идеями и знаниями, сохраняют социальный опыт как наследие. В этом отношении язык выступает как объединяющая и развивающая сила общества. В статье анализируется социальная сущность языка, его коммуникативные, воспитательные и культурные функции. Также освещается непосредственная роль языка в формировании общественного сознания в развитии общества.

**Kirish.** Til jamiyat hayotining eng asosiy poydevorlaridan biri bo'lib, insoniyat taraqqiyoti va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida muhim o'rin egallaydi. U nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy o'zligi va madaniy merosini ifodalovchi beqiyos ijtimoiy hodisadir. Til orqali insonlar o'z fikr va tuyg'ularini ifoda etadi, bilim va tajribalarni avlodlardan avlodga yetkazadi. Shu bois tilning ijtimoiy mohiyatini chuqur o'rganish, uning kommunikativ, madaniy va tarbiyaviy vazifalarini tahlil etish dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Til jamiyatni birlashtiruvchi, millatni jipslashtiruvchi hamda ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuch sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

Til – bu nafaqat aloqa vositasi, balki inson tafakkuri va ongining tashqi ifodasidir. U kishilik jamiyatining shakllanishi, rivojlanishi va madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hodisa sifatida falsafaning diqqat markazida turgan muhim mavzulardan biridir. Tilning inson ongidagi va ijtimoiy hayotdagi o‘rni masalasi falsafa doirasida til falsafasi, epistemologiya, ontologiya va ijtimoiy falsafa bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. Til va ong o‘rtasidagi bu uzviy bog‘liqlikni qadimgi yunon faylasuflari ham chuqur o‘rganishga harakat qilganlar. Ayniqsa, Aristotel “Logos” tushunchasi orqali “tilni nafaqat so‘zlashuv, balki aql-idrokni ifodalovchi vosita sifatida ta’riflagan. Uning fikricha, inson boshqa mavjudotlardan til orqali fikrni ifodalash qobiliyati bilan ajralib turadi”[1:14]. Bu fikr keyinchalik stoiklar, Platon va neoplatonchilar tomonidan ham rivojlantirilgan.

Avvalo, til inson ongi bilan chambarchas bog‘liq. Falsafiy nuqtayi nazardan qaralganda, til tafakkurning shakllanishi va rivojlanishida vositachi bo‘lib xizmat qiladi. Inson fikrini tuzishda, uni tushunishda va anglatishda til asosiy vosita bo‘ladi. Taniqli nemis faylasufi V. fon Gumboldt ta’kidlaganidek, “til – bu fikrning nafaqat ifodasi, balki uni yaratish qurolidir” [2:7]. Shu jihatdan, til inson ongining strukturasi va mazmunini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Tarixiy-antropologik yondashuvga ko‘ra, inson tilining paydo bo‘lishi ibtidoiy jamiyat davriga borib taqaladi. Bu davrda til insonlarning kundalik ehtiyojlari – ov qilish, himoyalani, bir-birini ogohlantirish kabi funksiyalarni bajarish uchun zarur vosita bo‘lib xizmat qilgan. Biroq, vaqt o‘tishi bilan til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki voqelikni anglash va uni modelashtirish vositasiga aylandi. Shu tariqa til tafakkur bilan uyg‘unlashib, ongni shakllantirish jarayoniga kirishdi.

Til orqali inson tashqi olamni anglaydi, uni nomlaydi va ichki dunyosini tartibga soladi. Til – bu simvolik tizim bo‘lib, u orqali inson voqelikni modelashtiradi va uni o‘z ijtimoiy tajribasi asosida qayta ishlab chiqadi. Aynan til orqali inson tafakkuri abstrakt shaklga ega bo‘lib, u umumlashtirish, tahlil qilish, solishtirish kabi intellektual jarayonlarni amalga oshiradi. Bu esa ongning faolligini va o‘z-o‘zini anglash darajasini oshiradi. Tilning ijtimoiy hayotdagi o‘rniga to‘xtaladigan bo‘lsak, u jamiyatda muloqot vositasi, madaniyat tashuvchisi va ijtimoiy ongni shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Falsafiy yondashuvlarda “til jamiyatni birlashtiruvchi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, axloqiy va huquqiy qadriyatlarni ifodalovchi vosita”[3:105] deb baholanadi. Til yordamida avlodlar o‘rtasida bilim, tajriba va qadriyatlar uzatiladi. Bu esa jamiyatning tarixiy-madaniy davomiyligini ta’minlaydi.

Ijtimoiy ongda til kommunikatsiya vositasigina emas, balki ijtimoiy g‘oyalarni tarqatuvchi, nazorat qiluvchi va mustahkamlovchi kuchdir. M. Fuko kabi zamonaviy faylasuflar tilni

hokimiyat bilan bog‘liq ijtimoiy amaliyot sifatida o‘rganib, til qanday qilib odamlar ongiga ta’sir o‘tkazishini ochib berganlar. Demak, til insonning ijtimoiy mavjudligini belgilab beruvchi asosiy vositadir. “Til – inson ongi va ijtimoiy hayotining ajralmas bir qismi bo‘lib, u nafaqat aloqa va axborot almashinuvi vositasi, balki ongni shakllantiruvchi va jamiyatni barqarorlashtiruvchi asosiy falsafiy kategoriya hisoblanadi”[4:105]. Til orqali inson inson bo‘ladi, jamiyat esa o‘zini anglab, ma’naviy qadriyatlarini rivojlantiradi. Tilning inson ongida rivojlanishi tarixiy jarayon sifatida asta-sekinlik bilan ibtidoiy funksiyadan – abstrakt tafakkur vositasigacha shakllangan. Bu jarayonda til nafaqat ongning ifodasi, balki uni shakllantiruvchi, yo‘naltiruvchi va tarixiy tajribani kodlovchi vosita sifatida namoyon bo‘lgan. Shu sababli tilni o‘rganish – bu insoniyatning o‘zini anglash tarixini o‘rganish bilan barobardir.

O‘rta asrlarda, xususan, musulmon olamida ham til va ong masalalari falsafiy tahlil ob’ekti sifatida tahlil va talqin etilgan. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino kabi allomalar tilni tafakkur vositasi sifatida ko‘rib, uni mantiqiy struktura asosida tahlil qilganlar. Forobiy o‘zining “Al-bayan” va “Al-lug‘a”[5] asarlarida til va mantiq o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlagan, til tafakkurning tashqi shakli ekanligini asoslab bergan.

Yangi davr falsafasida, xususan, R. Dekart va G. V. Leybnits fikrlarida til bilan aql o‘rtasidagi munosabat muhim o‘rin tutgan. Dekart fikricha, til fikr yuritishning mahsuli bo‘lib, insonning “o‘ylayapman – demak mavjudman” degan aksiomasida til o‘z ifodasini topadi. Bu esa tilning nafaqat kommunikatsion, balki ontologik va gnoseologik ahamiyatini ko‘rsatadi.

XIX–XX asrlarda tilning ongdagi rivojlanishi masalasi strukturalizm va fenomenologiya doirasida chuqur tahlil qilindi. Shvetsariyalik tilshunos olim, semiologiya va tilshunoslik strukturasiga asos solgan Ferdinand de Sossyur tilni ijtimoiy hodisa sifatida baholagan bo‘lsa, rus psixologi Lev Simyonovich Vygotskiy tilning psixologik va kognitiv rivojlanishga ta’sirini chuqur o‘rgangan. Vygotskiy ta’kidlashicha, “bola til vositasida nafaqat tashqi muhit bilan aloqa qiladi, balki ichki nutq orqali o‘z tafakkurini shakllantiradi. Bu fikr tilning ongdagi rolini rivojlanish davrlarida qanday o‘zgarishini tushuntiradi”[6].

Zamonaviy falsafada esa amerikalik tilshunos, siyosatchi va faylasuf Naom Xomskiy, fransuz faylasufi va tarixchisi Mishel Fuko, fransuz faylasufi va dekonstruksiya nazariyoti asoschisi Jak Derrida kabi mutafakkirlar tilni inson ongini boshqaruvchi, nazorat qiluvchi va unga ramziy ma’no yuklovchi struktura sifatida baholaydilar. Til bu yondashuvlarda insonni tashqi haqiqatga emas, balki ijtimoiy konstruksiyalarga bog‘laydigan ongli tizim sifatida ko‘riladi.

Til – jamiyat taraqqiyotining asosi, uning ijtimoiy va madaniy hayotining ajralmas tarkibiy qismidir. Har qanday millat yoki jamiyat o‘zining tarixiy shakllanishi, taraqqiyoti va madaniy

boyliklarini avvalo til orqali namoyon etadi. Shu ma'noda, til nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy ong, madaniyat va tafakkurning tashuvchisi sifatida jamiyat rivojida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Jamiyat taraqqiyoti, eng avvalo, bilim, tajriba va qadriyatlarning avloddan-avlodga uzatilishi orqali amalga oshadi. Bu uzluksizlikni ta'minlovchi asosiy vosita esa tildir. Til orqali tarixiy tajriba, ilm-fan yutuqlari, urf-odatlar va qadriyatlar jamiyat a'zolariga yetkaziladi. Shunday ekan, tilning boyligi, ilmiy-texnik va madaniy terminlarga moslashuvchanligi jamiyatning intellektual salohiyatini belgilaydi.

Til – bu madaniyatning yuragi. Har bir til o'ziga xos estetik tizimga, badiiy ifoda vositalariga, obrazlar va ramzlar olamiga ega. Shuning uchun tilning rivoji bevosita adabiyot, san'at, falsafa va axloqiy tafakkurning taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Masalan, milliy til asosida rivojlangan adabiyot jamiyat a'zolarining estetik didi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy ongini shakllantiradi. Bu esa madaniy yuksalishning asosiy omillaridan biridir.

Bundan tashqari, til milliy birlikni ta'minlovchi, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi kuchdir. Bir tilda so'zlashuvchi jamiyat a'zolari o'rtasidagi ma'naviy yaqinlik, umumiy dunyoqarash va tarixiy xotira jamiyatning barqaror taraqqiyotiga zamin yaratadi. Tilni asrash, rivojlantirish va uni ilm-fan, texnologiya hamda ta'lim sohalariga moslashtirish – bu nafaqat madaniy siyosat, balki ijtimoiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishidir. U insoniyat tafakkurini chuqurlashtiradi, madaniyatni yuksaltiradi, milliy o'zlikni shakllantiradi va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi.

Til va ijtimoiy ong o'rtasidagi bog'liqlik masalasi falsafada muhim metodologik muammolardan biri bo'lib, u tilning jamiyatda qanday rol o'ynashi, tafakkur va ong shakllanishida qanday o'rin egallashini tahlil qilishni talab qiladi. Bu borada Karl Marks, Gyote va Vilgelm fon Humboldtning qarashlari tilni faqat muloqot vositasi sifatida emas, balki ongli va ijtimoiy hodisa sifatida chuqur talqin qilish imkonini beradi.

Karl Marks tilni ijtimoiy ongning ajralmas shakli sifatida izohlaydi. Marksistik yondashuvga ko'ra, til jamiyatdagi mehnat munosabatlari, iqtisodiy sharoit va tarixiy voqelik bilan bog'liq holda shakllanadi. Marks “Nemis mafkurachilari” asarida ta'kidlaganidek, “Odamlar o'z onglarini emas, balki mavjud ijtimoiy sharoitga ko'ra ongli bo'ladilar”[7:123] Bu shundan dalolat beradiki, til inson ongining mustaqil ifodasi emas, balki ijtimoiy mavjudlikning mahsulidir. Til orqali ijtimoiy ongning shakllanishi – bu real tarixiy amaliyotning ramziy in'ikosi bo'lib xizmat qiladi. Demak, til jamiyatning ijtimoiy ongini shakllantiruvchi, ongiy ideologiyalarni uzatuvchi asosiy vositadir.

Gyote esa tilni insoniy mohiyatni anglatish va estetik dunyoqarashni shakllantirish vositasi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, til ruhning o'zini anglash shaklidir. Gyote “Til – bu ichki

dunyoning tashqi aksidir”[8:215], deya ta’kidlagan. Bu g’oya tilning nafaqat kommunikativ, balki ijtimoiy-psixologik va madaniy-estetik jihatlarini ham o’zida mujassam etadi. Gyotening estetik falsafasida til madaniy ongni rivojlantiruvchi vosita sifatida ko’riladi; u orqali jamiyat o’zining qadriyatlarini, ideallarini va ichki kechinmalarini ifodalaydi.

Vilgelm fon Humboldt esa tilni inson tafakkurining yaratuvchi vositasi sifatida talqin etadi. U til va tafakkur o’rtasidagi bog’liqlikni chuqur tahlil qilgan bo’lib, tilni “fikrning nafaqat ifodasi, balki uni shakllantiruvchi kuch” deb ataydi. Humboldtning fikricha, har bir til dunyoni o’ziga xos tarzda tasvirlaydi – bu “dunyoqarash nazariyasi” sifatida tilshunoslikda mashhur. Tilning ijtimoiy ong bilan bog’liqligi Humboldt qarashlarida tilning milliy tafakkur va madaniyatni shakllantirishdagi o’rnida namoyon bo’ladi. Unga ko’ra, til ijtimoiy ongning dinamik tizimi bo’lib, u doimo harakatda va o’zgarishda bo’ladi.

Til ijtimoiy ongning shakllanishi va ifodalanishida markaziy o’rin egallaydi. Marks tilni real ijtimoiy amaliyot va ong o’rtasidagi vosita sifatida ko’rgan bo’lsa, Gyote til orqali ruhiy-estetik ongni ifodalashga urg’u beradi. Humboldt esa tilni tafakkur va madaniyatni shakllantiruvchi ijtimoiy kuch sifatida talqin qiladi. Bu uch yondashuv tilning ijtimoiy ong bilan uzviy bog’liqligini falsafiy asosda izohlab beradi va tilni faqat lingvistik hodisa emas, balki jamiyatni anglashning kaliti sifatida ochib beradi.

Til diniy ongni shakllantirish va uzatishda hal qiluvchi rol o’ynaydi. Har bir din o’ziga xos muqaddas matnlar, duolar, marosim iboralari orqali ifodalanadi. Bu matnlar faqat diniy e’tiqod emas, balki madaniy va axloqiy qadriyatlar tizimini ham belgilab beradi. Masalan, Qur’oni karim, Injil yoki Tavrot singari diniy kitoblar ilohiy va ijtimoiy qarashlarning til orqali kodlangan ifodasidir. Til bu yerda nafaqat ma’no tashuvchi vosita, balki muqaddaslik, marosim va e’tiqodiy kuchning tashuvchisi sifatida namoyon bo’ladi. Diniy tilda ishlatiladigan ramzlar, metaforalar va alegoriyalor orqali inson qalbi, axloqi va ruhiy dunyosi tarbiyalanadi. Shunday qilib, til diniy ongni idrok qilish, uni saqlash va jamiyatga uzatishda asosiy vositadir.

Siyosiy ongda til mafkura va hokimiyatning ifodaviy vositasiga aylanadi. Siyosiy fikr, shiorlar, nutqlar, qonun loyihalari va rasmiy hujjatlar til orqali shakllanadi va tarqaladi. Siyosatchilar til orqali xalqni ishontiradi, safarbar qiladi va ijtimoiy ongga ta’sir ko’rsatadi. Masalan, “adolat”, “erkinlik”, “xalq hokimiyati”, “milliy manfaatlar” kabi siyosiy atamalar keng doiradagi ideologik tushunchalarni aks ettiradi. Siyosiy tilda so’zlarning ma’nosi doimiy emas – ular vaziyatga qarab qayta talqin qilinadi, siyosiy kuchlar til orqali o’z pozitsiyasini mustahkamlab boradi. Demak, til siyosiy ongning shakllanishi, tarqalishi va jamiyatdagi mafkuraviy kurashlarning asosiy qurolidir.

Huquqiy ong qonunlar, normalar, hujjatlar va huquqiy tushunchalar orqali til shaklida ifodalanadi. Huquqiy til odatda rasmiy, standartlashtirilgan, aniq va qat'iy bo'ladi. Til huquqiy ongda jamiyatda qabul qilingan me'yoriy qoidalarni aks ettiradi, shaxs va davlat o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Masalan, "konstitutsiya", "erkinlik", "majburiyat", "javobgarlik", "sanksiya" kabi terminlar huquqiy ongning markaziy tushunchalarini tashkil etadi. Huquqiy ongning tarqalishi va mustahkamlanishi til orqali amalga oshadi: qonunlar tilga solinmasdan, ular tushunilmaydi va amalda qo'llanilmaydi. Shunday qilib, til huquqiy ongni hujjat shakliga keltiradi, uni tushunarli va ijro etiladigan holga olib keladi.

Axloqiy ong ham til orqali shakllanadi va tarqaladi. Nasihat, pand-nasihatlar, maqollar, iboralar, badiiy asarlar, pedagogik nutq – bularning barchasi axloqiy ongni mustahkamlovchi tildir. Inson qanday xatti-harakat yaxshi yoki yomon, ma'qul yoki nojoiz ekanini til orqali anglaydi. Masalan, "halollik", "vijdon", "fidoyilik", "mehr", "tavba", "uyat" kabi so'zlar axloqiy ongning kalit tushunchalaridir. Tarixiy jarayonda axloqiy qadriyatlar til orqali avloddan-avlodga o'tgan, ijtimoiy muhitda tarbiya va o'rnak ko'rinishida shakllangan. Axloqiy ongning kuchi shundaki, u insonning ichki olamiga ta'sir qiladi, unga qarorlar qabul qilishda ichki mezonlar beradi – bu esa til orqali shakllanadigan va mustahkamlanadigan ongiy jarayondir.

Tilning ijtimoiy mohiyatini yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib quyidagi xulosaga kelindi: Birinchidan, til jamiyat hayotining asosiy tayanchlaridan biri sifatida insonlarni o'zaro bog'laydi. U nafaqat muloqot vositasi, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi va madaniy merosni avlodlarga yetkazuvchi kuchdir. Shu bois tilni asrash va rivojlantirish ijtimoiy taraqqiyot uchun zarur.

Ikkinchidan, til milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarning ifodachisi sifatida jamiyatda muhim birlashtiruvchi rolni bajaradi. Uning ijtimoiy mohiyatini chuqur anglash millatning jipsligi, barqarorligi va ma'naviy uyg'unligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Tilning qadrlanishi millatning qadrlanishi demakdir.

Uchinchidan, har bir jamiyatda til kommunikatsiya jarayonining asosiy vositasi bo'lib, bilim, g'oya va tajribalarning uzluksiz almashinuvini ta'minlaydi. Bu jihatdan til nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy taraqqiyotning ham muhim kafolatidir. Tilning boyligi jamiyatning madaniy boyligini ifodalaydi.

To'rtinchidan, tilning tarbiyaviy mohiyati shundaki, u yosh avlodni milliy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy an'analarga yo'naltiradi. Shu orqali jamiyatning ma'naviy salohiyati saqlanadi va mustahkamlanadi. Tilning tarbiyaviy vazifasini chuqur anglash ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi.



Beshinchidan, tilning ijtimoiy mohiyati uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini belgilaydi. U milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy birdamlik va madaniy rivojlanishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu sababdan tilni rivojlantirish va uni asrab-avaylash dolzarb ijtimoiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Tilning ijtimoiy mohiyatini o'rganish zaruriyati bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish o'rinli hisoblanadi:

- Ta'lim tizimida tilning ijtimoiy vazifalarini o'rgatishga alohida e'tibor qaratish zarur. O'quv dasturlariga tilning kommunikativ, tarbiyaviy va madaniy mohiyatini yorituvchi maxsus kurslarni kiritish yosh avlodning ijtimoiy ongini shakllantirishda samarali bo'ladi.

- Jamiyatda ona tilini asrash va rivojlantirishga qaratilgan davlat va nodavlat loyihalarni kengaytirish lozim. Bu borada adabiy kechalar, til festivallari va ilmiy anjumanlarni muntazam o'tkazish orqali tilning ijtimoiy ahamiyatini keng ommaga yetkazish mumkin.

- Axborot makonida tilning toza, sof va adabiy shaklda qo'llanishiga erishish kerak. OAV, ijtimoiy tarmoqlar va bloglarda til madaniyatiga rioya etilishini nazorat qilish tilning ijtimoiy nufuzini oshirishga yordam beradi.

- Tilshunoslik va ijtimoiy fanlar kesishmasida yangi tadqiqotlar olib borish zarur. Xususan, tilning ijtimoiy ong, milliy o'zlik va axloqiy qadriyatlarga ta'siri bo'yicha empirik tadqiqotlar o'tkazish ilmiy natijalarning amaliy ahamiyatini kuchaytiradi.

- Yoshlar orasida tilni qadrlash va to'g'ri qo'llash madaniyatini shakllantirish uchun interaktiv o'quv dasturlar, mobil ilovalar va onlayn platformalar yaratish tavsiya etiladi. Bu tilning ijtimoiy mohiyatini zamonaviy texnologiyalar vositasida mustahkamlash imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Аристотель. Протрептик. О чувственном восприятии. О памяти. / Пер. Е. В. Алымовой. – Санкт-Петербург.: “Издательство СПбГУ”, 2004 – С.14.
2. Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. – М.: «Прогресс», 1985 – С.7.
3. Прокофьев Г.С. Соотношение права и языка: теоретико-философский анализ. Дис. канд. юрид. наук. Москва, 2002. С. 21-22.
4. Вайсгербер Л. Родной язык и формирование духа. – М.: «ЛИБРОКОМ», 2009 – С.105.
5. Muhsin Mahdiy. 1980-yillarda Farobiy asarlarini sistematik tarzda to'plagan “Risāla fi al-Bayān” (Bayon risolasi) nashr etilgan.
6. Выготский Л.С. Младенческий возраст // Собр. соч.: В 6 т. М.: Педагогика, 1982-1984.



7. К. Маркс, Ф. Энгельс, Немецкая идеология. – М.: “Политиздат”, 1988. – XVI, – С.123. (574).

8. Гете И.В. Избранные сочинения по естествознанию. – М.: «Рипол Классик», 2013. – С.215. (590).